2 jildlik “Xorazm va xorazmliklar” kitobi chop qilindi

Xorazm Ma’mun akademiyasi tayanch doktoranti U.Bekimmetovning 2 jildlik “Xorazm va xorazmliklar” kitobi chop qilindi.

“Xorazm va Xorazmliklar” turkumidagi birinchi kitobda Xorazm toponimi, uning kelib chiqishi bilan bog’liq olimlarning fikr mulohazalari, taxminlari va xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlar, ilmiy faktlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Xorazmning tabiiy geografik joylashuvi, qadimiy o’lka tarixining turli davrlaridagi voqealar, jarayonlar yoritib berilgan.

Bundan tashqari, Beruniy, Shayx Bahlulbek, Qozikalon Salimoxun, Bobooxun Salimov, Rahmat Majidiy, Nazirqul Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Poshshajon Mahmudova, Madiyor Solayev singari Xorazm tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning hayoti va faoliyati yangi ma’lumotlar asosida tadqiq qilingan.

Shu kabi Xorazmda yashagan mennonit nemislarining voha taraqqiyotiga qo’shgan katta hissasi, voha tarixini teran tadqiq qilgan V.Bartold, Z.Bunyodovlarning hayoti, ilmiy merosi ham ushbu birinchi kitobda qamrab olingan.

Ikkinchi kitobda viloyatdagi mavjud tumanlar toponimikasi, ularning kelib chiqishi, Xiva shahridagi minoralar, ularning qurilishi bilan bog’liq jarayonlar tahlil etilgan. Shuningdek, Yevropada o’qigan birinchi irrigator Muhammad Aminaddinov,birinchi kinoperator Xudoybergan Devonov, Germaniyada o’qigan Maryam Sultonmurodova, Xiva xonligi arxiv hujjatlarini o’rgangan A.L.Kun, P.Ivanov, M.Yo’ldoshevlar, sharqshunos A.Samoylovich, Urganchda tug’ilib o’sgan mashhur polyak xonandasi Anna German,

1934-1937-yillarda Xorazmga rahbarlik qilgan Normat Isroilovlar hayoti va faoliyati ham yangi arxiv ma’lumotlari va boshqa manbalar asosida tadqiq qilingan.

Har ikkala kitob nafaqat oliy o’quv yurtlarining bakalavr, magistrlari, tadqiqotchilar, balki keng omma uchun ham mo’ljallangan.